



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 83-88 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA MOLIYAVIY NAZORATNING ROLI VA UNI TASHKIL ETISH ZARURATI



**Yakubov Valijon Ganiyevich,**

Farg‘ona politexnika instituti,

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida katta o‘qituvchi.

e-mail: [v.yakubov@ferpi.uz](mailto:v.yakubov@ferpi.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy nazoratning roli va uni tashkil etish zarurati haqida bo‘lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy nazorat va mamlakat iqtisodiy farovonligini o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligini asoslashdir. Jahonda yuz berayotgan bugungi iqtisodiy tebranishlar va inqirozlar davrida har bir mamlakat o‘z iqtisodiy navsizlik masalasi birinchi navbatga qo‘yadi, shu asosida ushbu maqolada muallif tomonidan moliyaviy nazoratning roli va zarurati nazariy jihatdan ko‘rib chiqilgan, o‘z mulohazalarini maqolaning yakunida umumiy lashtirib xulosalarni shakllantiradi.

**Kalit so‘zlar:** iqtisodiyotni tartibga solish, moliyaviy nazorat, bozor munosabatlari, vakillik organlari, davlat moliyaviy nazoratni, iqtisodiy boshqarish, nazoratni huquqiy tartibga solish, ichki moliyaviy nazorat.

### РОЛЬ ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ В ЭКОНОМИКЕ СТРАНЫ И НЕОБХОДИМОСТЬ ЕГО ОРГАНИЗАЦИИ

**Аннотация.** Данная статья посвящена роли финансового контроля в экономике страны и необходимости его организации, основной целью которой является обоснование взаимосвязи финансового контроля и экономического благосостояния страны. В период сегодняшних экономических потрясений и кризисов, происходящих в мире, каждая страна ставит на первое место вопрос своей экономической нестабильности, на основании чего в данной статье автором теоретически рассматриваются роль и необходимость финансового контроля, формулируются выводы, обобщающие его рассуждения в конце статьи.

**Ключевые слова:** регулирование экономики, финансовый контроль, рыночные отношения, представительные органы, государственный финансовый контроль, хозяйственный контроль, правовое регулирование надзора, внутренний финансовый контроль.

### THE ROLE OF FINANCIAL CONTROL IN THE COUNTRY'S ECONOMY AND THE NEED FOR ITS ORGANIZATION

**Abstract.** This article is devoted to the role of financial control in the country's economy and the need for its organization, the main purpose of which is to substantiate the relationship between financial control and the economic well-being of the country. In

the period of today's economic shocks and crises taking place in the world, each country puts the issue of its economic instability in the first place, on the basis of which in this article the author theoretically examines the role and necessity of financial control, and formulates conclusions summarizing his reasoning at the end of the article.

**Keywords:** economic regulation, financial control, market relations, representative bodies, state financial control, economic control, legal regulation of supervision, internal financial control.

### 1. Kirish qismi.

Bugungi iqtisodiyotni globallashuv sharoitida butun jahonda xususan, O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Chunki har bir jamiyatda davlat o'z funksiyasini ijtimoiy soha obyektlari orqali amalga oshiradi. Mamlakatning ijtimoiy sohalarini rivojlantirish bevosita ularning moliyaviy ta'minlanganlik darajasi bilan ham bog'liq. Bu esa byudjet muassasalarida moliyaviy faoliyatni samarali tashkil zaruratini vujudga keltiradi, davlat byudjeti tomonidan ajratilayotgan mablag'lardan oqilona foydalanish, ulardan samarasiz va maqsadsiz foydalanishni oldini olish bevosita byudjet muassasalarida moliyaviy nazoratni to'g'ri tashkil etish va bu sohani takomillashtirishni talab etadi.

Har qanday jamiyatda, xoh u rivojlangan mamlakat bo'lsin yoki rivojlanayotgan, uning iqtisodiyoti o'sha davlatning belgilangan qonunchiliklari asosida tartibga solinadi. Barcha ko'rinishdagi iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy rivojlanishlar agar ular davlat tomonidan tartibga solib turilmas ekan bu jamiyatning, bu iqtisodiyotning kelajagi albatta inqirozga yuz tutishi muqarrar.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy vositalaridan biri bu – moliyaviy nazorat jarayonlaridir.

Moliyaviy nazoratning zarurligi, uning mohiyati va ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tomonidan aniqlanadi. O'zbekistonda moliyaviy nazorat Konstitutsiyaning 14-moddasidagi "Davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi" [1] degan qoidani hayotda amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan.

Hozirgi davrda O'zbekiston bozor munosabatlarini rivojlantirish, bu bilan bog'liq holda barcha davlat institutlarini takomillashtirish islohotlari davrida yashamoqda. Shuning uchun ham ijroiya va vakillik organlari tizimida turli nazorat organlarining vazifalarini ilg'or tajriba va milliy manfaatlar asosida takomillashtirish eng dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

### 2. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Ko'plab olimlar tomonidan "moliyaviy nazorat" tushunchasiga, terminiga ta'riflar va fikrlar bildirilgan, xususan yurtimiz olimlari T.S. Malikov va O.O. Olimjonov tomonidan "Davlat moliyaviy nazoratning ahamiyati va o'rnini obyektiv baholanishi uchun uni ikki jihatdan ko'rib chiqish kerak: tor va keng ma'noda. Keng ma'noda davlat moliyaviy nazorati – samarali davlat moliya siyosatini amalga oshirish uchun mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va davlat moliyaviy jarayonida davlat manfaatlarga rioya etilishini ta'minlaydigan tartibga solish choratadbirlarining yig'indisidir. Tor

ma'noda davlat moliya nazorati esa mamlakatning samarali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi maqsadida davlat va mahalliy hokimliklarning davlat pul fondlari mablag'larini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonining qonuniy va maqsadga muvofiqligi ustidan davlat hokimiyat organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdir" [2; 144 b] deb yozadi.

Yana O'zbek olimlari B.Sh.Safarov va I.I.Ayubov tomonida ushbu tushunchaga quyidagicha tarif berishadi "Moliyaviy nazorat – butun nazorat tizimining tarkibiy qismi bo'lib, uning yo'nalishi davlat moliya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish, tarmoqlar iqtisodiyotidagi barcha soha va tarmoqlarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanishga qaratiladi. Moliyaviy nazorat – moliyaning nazorat funksiyasini amalga oshirish hamdir. Moliyaviy nazoratning mazmuni va yo'nalishi jamiyatdagi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining o'zgarishidan kelib chiqqan holda o'zgarib turadi" [3; 79 b]

Zamonaviy rus olimlari Ye. Yu. Gracheva va boshqalar tomonidan ushbu tushunchani quyidagicha ta'rif berilgan "Moliyaviy nazoratning muhim vazifalaridan biri moliyaviy masalalar to'g'risidagi qonun hujjatlariga aniq rioya yetilishini, byudjet tizimi, soliq xizmati, banklar oldidagi moliyaviy majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini, shuningdek korxonalar va tashkilotlarning hisob-kitoblar hamda to'lovlar bo'yicha o'zaro majburiyatlarini tekshirishdan iborat" [4; 12 b].

Yuqoridagilarda asoslangan holda bizningcha moliyaviy nazorat – bu mamlakatda amalga oshirilayotgan nazoratning tarkibiy qismi, yoki maxsus sohasidir. Moliyaviy nazoratning mavjudligi moliyani iqtisodiy kategoriya sifatida nafaqat taqsimlovchi, balki nazorat funksiyasini ham amalga oshirish vazifasida kelib chiqadi. Shuning uchun ham davlat o'z vazifalarini bajarish uchun moliyadan foydalanish jarayonida uning yordamida nazoratni ham amalga oshirishni ham ko'zlaydi.

Moliyaviy nazorat o'rnatilgan huquqiy me'yorlar asosida barcha davlat organlari va mahalliy davlat organlari tizimida, jumladan, fuqarolar, mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlari ishtirokidagi maxsus nazorat organlari vositasida amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazoratning ahamiyati shu bilan muhim kasb etadiki, tekshiruvlar o'tkazishda, birinchidan, davlat organlari, jamoat tashkilotlari, korxonalar va boshqa idoralar moliyaviy faoliyatini o'rnatilgan huquqiy tartibotlar saqlashga majburligi, ikkinchidan, ular faoliyatining iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligi, davlat vazifalariga muvofiqligi tekshiriladi.

### **3. Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotning maqsadi bo'lib, mamlakat iqtisodiyotida moliyaviy nazoratning roli va uni tashkil etish zarurati tadqiq etish, hamda amaliyotda uchrayotgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi: kuzatish, ma'lumotlarni tavsiflash, natijalarni qayta ishlash, olingan natijalarni tahlil qilish, mavjud qonuniyatlarni tahlil etish.

### **4. Tahlil va natijalar.**

Har qanday mamlakatning rivojlanishi mamlakat ma'lum vaqt ichida erishadigan iqtisodiy o'sishga bog'liq. Iqtisodiy o'sish investitsiyalar va ishlab chiqarish, shuningdek,

mamlakatdagi yalpi ichki mahsulot hajmi bilan bog'liq. Bu oshgandagina odamlar turmush darajasining oshishi, ya'ni iqtisodiy rivojlanish shaklida o'sishni his qilishadi.

O'zbekiston bugun tub islohotlar va o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda, odatda bu o'tish davri deb ataladi. Biz asta-sekin totalitar turdan demokratik turga o'tmoqdamiz. Shu bilan birga, qarashlar, mafkura va qadriyatlar tizimi ham bundan mustasno emas. Ammo, bu birinchi navbatda iqtisodiyot siyosat asosida o'zgarishlar sodir bo'lishini anglatadi.

Davlatning iqtisodiy boshqaruv organi bu moliya tizimidir, moliya iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi, moliyaviy nazorat esa moliyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli, hozirda moliyaviy nazorat vazifalarida ham, uning ahamiyatini baholashda ham sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Moliyaviy nazoratga bo'lgan ehtiyoj, uning mohiyati va ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan belgilanadi bu isboti maqolani kirish qismida keltirilgan birgina modda bilan ko'rish mumkin. Hozirgi vaqtda yurtimiz bozor munosabatlarining shakllanishi hamda barcha davlat boshqaruv organlarini isloh etish davrini boshdan kechiryapti, qonunchilik va hukumat o'rtasida vakolatlarni ajratish jarayoni bundan mustasno emas. Bunda ijro yetuvchi organlarning turli nazorat tadbirlarini o'tkazish vazifalari va funksiyalarini belgilash zarurati juda dolzarbdir.

Moliyaviy nazoratni qayta yo'naltirish va uni yangi sharoitlarga moslashtirish muammosi, bizning fikrimcha, bugungi kunda asosiy muammolardan biridir. Chunki bu davlatga ham tegishli (chunki uning yordami bilan davlat soliq yig'ishni ko'paytiradi) korxonalar, tashkilotlar va muassasalar (moliyaviy nazorat yordamida ularning xarajatlarini kamaytirishi va shu bilan ularning daromadlarini oshirishi yolarini topish mumkin).

Moliyaviy nazorat-bu iqtisodiy kategoriya sifatida moliyadagi nazoratning obyektiv o'ziga xos xususiyatining amaliy timsolidir [4; 11 b].

Moliyaviy nazorat odatda ikki jihatdan ko'rib chiqiladi:

1) davlatning vakolatli o'rgani tomonidan maxsus tashkil etilgan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy qonunchiligi va moliyaviy intizomiga rioya qilishni nazorat qilish uchun tashkil etilgan qat'iy nazorat faoliyati;

2) moliyaviy operatsiyalarning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida makro va mikro darajada moliyaviy va pul oqimlarini boshqarishning ajralmas elementi sifatida.

Nazoratning ikkala jihati ham o'zaro bog'liq, ammo ular maqsadlar, usullar va nazorat subyektlari bilan farqlanadi. Davlat moliyaviy nazorati-bu davlatning asosiy qonunlari qoidalariga asoslangan aniq hokimiyat va boshqaruvning iqtisodiy va huquqiy harakatlarining keng qamrovli va maqsadli tizimidir [5]. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda mamlakat Konstitutsiyasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Nazoratni huquqiy tartibga solish davlat turiga, uning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishiga, iqtisodiy rivojlanish darajasiga va mulkchilik shakllarining nisbatiga bog'liq.

Nodavlat moliyaviy nazorat ichki (kompaniya ichidagi, korporativ) va tashqi (audit) ga bo'linadi.

Davlat va nodavlat nazorat turlari, usullarning o'xshashligiga qaramay, yakuniy maqsadlarida sezilarli darajada farqlanadi. Davlat nazoratining asosiy maqsadi xazinaga resurslar oqimini maksimal darajada oshirish va minimallashtirishdir.

Rivojlangan G'arb mamlakatlarida moliyaviy nazorat tizimi odatda bir xil turdagi va quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: |

Bosh Auditor, Auditor idorasi (hisob palatasi) to'g'ridan-to'g'ri parlamentga yoki mamlakat Prezidentiga bo'ysunadi. Ushbu bo'limning asosiy maqsadi davlat mablag'larining sarflanishi ustidan umumiy nazoratdir;

Prezidentga bo'ysunadigan soliq agentligi, hukumat yoki moliya vazirligi, soliq tushumlarining xazinaga tushishini nazorat qiladi;

Bo'ysunuvchi muassasalarni tekshirish va taftishlarni amalga oshiradigan davlat idoralari tarkibidagi nazorat tuzilmalari;

Buxgalteriya hujjatlarining ishonchligi va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligini tijorat maqsadlarida tekshiradigan nodavlat nazorat xizmatlari;

Asosiy vazifasi xarajatlarni kamaytirish, moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va foydani oshirishdan iborat bo'lgan ichki nazorat xizmatlari.

Jahon hamjamiyati ko'p yillik tajribaga asoslanib shu ni aytish mumkinki, har bir davrda davlat amalga oshirishga islohotlarni va rivojlanishni ta'minlash uchun samarali davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning asosiy qoidalari va tamoyillarini ishlab chiqishga intildi.

Moliyaviy nazoratni tashkil etish tizimiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan qonunlarni qabul qilish orqali davlat yuqorida aytib o'tilgan elementlarga ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga, nazorat harakatlari o'z qoidalari (tartibi va ketma-ketligi)ga ega, bu oxir-oqibat so'ngi natijalarga ta'sir qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki bozor iqtisodiyotini shakllantirish davlat nazorat organlarining bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat turlarining rolini oshiradi. Ta'kidlanganidek, nodavlat moliyaviy nazorat turlariga kompaniya ichidagi (korporativ), tijorat banklari tomonidan mijoz tashkilotlari ustidan nazorat va auditorlik nazorati kiradi.

Ichki moliyaviy nazorat korxonaning o'zi, kompaniya, korporatsiya buxgalteriya hisobi, moliya bo'limi, moliyaviy menejment xizmati va boshqalarning iqtisodiy xizmatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki nazorat kapitalni investitsiyalashning butun jarayoniga hamroh bo'ladi. "Post-audit" deb ataladigan termin ishlab chiqarish va investitsiya faoliyatining har bir bosqichidagi haqiqiy moliyaviy natijalarni biznes-rejaning moliyaviy qismida bashorat qilingan natijalar bilan taqqoslashni anglatadi; ularning nomuvofiqligi sabablarini tahlil etadi va sabablarini yo'qotishga harakat etadi; xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy prognozlash usullarini qo'llagan holga uni takomillashtirish yo'llarini topadi.

## 5. Xulosa va takliflar.

Bugungi kunda davlat organlari moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Ko'rinib turibdiki, mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali ishlashi uchun zarur shart-bu rivojlangan nazorat tizimining mavjudligi. Uni isloh qilish uchun allaqachon bir qator qadamlar qo'yilgan.

Davlat moliyaviy nazoratini samarali amalga oshirish uchun nafaqat byudjet kodeksida bajarilgan davlat nazorati organlarini nomlash, balki ularning vazifalari, huquqlari va ko'lamini qonunlashtirish kerak.

Nazorat funksiyalari yuklatilgan organlarning sa'y-harakatlari muvofiqlashtirilmagan va ular asosan o'z bo'limlari doirasida amalga oshiriladi, bu esa moliya tizimining parchalanishiga olib keladi.

Yana bir muhim masala, bizning fikrimcha, moliyaviy qonunchilikni buzuvchilarga nisbatan davlat moliyaviy nazorati imkoniyatlarini belgilaydigan qonunning yo'qligi. Zero, moliyaviy qonunchilikni buzuvchilarga ta'sir o'tkazish bo'yicha ma'muriy, moddiy va moliyaviy choralarsiz nazorat organlariga yuklangan vazifalarni bajarishda yuqori natijalarga erishish mumkin emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: -T.: "O'zbekiston", 2023-yil. <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>.
2. Moliya: Darslik. T.S. Malikov, O.O. Olimjonov; / – T.: "Iqtisod-Moliya" 2019. – 800 b.
3. B.Sh.Safarov, I.I.Ayubov. Moliya va soliqlar //Darslik//. -T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2020. 512 b.
4. Правовое регулирование финансового контроля. Виды, формы и методы финансового контроля и надзора : учебник для магистратуры / отв. ред. Е. Ю. Грачева. — 2-е изд., доп. — Москва : Норма : ИНФРА-М, 2022. — 208 с.
5. Abduazizov, S. R. (2021). DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI. Scientific progress, 2(8), 250-256.
6. Qudbiyev, N. T., Ulug'bek Erkinjon, O. G. L., & Mominov, I. L. O. (2022). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI NAZORATNING SAMARALI TIZIMI SIFATIDA ICHKI AUDITNING O'RNI VA AHAMIYATI. Scientific progress, 3(1), 449-457.
7. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallalari. Scientific progress, 3(4), 1030-1037.
8. Якубов, В. Г. (2022). Сбыта Продукции Является Важным Фактором Увеличения Прибыли Компаний. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 3(5), 49-55.
9. Ahmadjonovich, S. D., & Ganievich, Y. V. IMPROVING THE QUALITY OF HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 15, 46.
10. Yakubov, V. G. (2022). MAHSULOT BOZORINI KENGAYTIRISH KORXONANING FOYDASINI OSHIRISH MUHIM OMILI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 852-861.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

